

# “Konstitutsiya - taraqqiyot poydevori” nomli manaviy-marifiy tadbir tashkil etildi

O‘zR FA O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 29 yilligiga bag‘ishlangan “Konstitutsiya - taraqqiyot poydevori” nomli manaviy-marifiy tadbir tashkil etildi. Unda Muzey xodimlari hamda Mirzo Ulug‘bek nomidagi Milliy universitet xorijiy filologiya fakulteti, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va Dizayin insituti tasviriy san‘at fakulteti, Mirobod tumanidagi 110-maktab, 211-maktab, Shayhantohur tumanidagi Bolalar ijodiyot maktabi o‘quvchilari qatnashdi.



Tadbirda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ahamiyati, hayotimizda tutgan o‘rni haqida ma‘ruza qilindi. Konstitutsiya bu - boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, davlatning asosiy qonuni sifatida ekanligini e‘tirof etishdi. Tadbirda iqtidorli o‘quvchi yoshlar ijrosida bayramga bag‘ishlangan turli sher, qo‘shiq va raqslar ijro etildi.